

Shuhrat Sharafutdinov,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Parlament mas'uliyati doirasiga mamlakatning innovatsion rivojlanishini ta'minlash masalalari ham kiritildi

Joriy yilning 12-aprel kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining yalpi majlisida «**Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasining nomini o'zgartirish to'g'risida**»gi Qarori loyihasi muhokama etildi va qabul qilindi.

Bunday Qarorning qabul qilinishiga mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ularni hayotga tatbiq etishdagi innovatsion yondashuv va ularda parlament ishtiroki hamda mas'uliyatini belgilash asos bo'ldi.

2018-yil Prezidentimiz taklifiga asosan «**Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili**» deb e'lon qilindi va yil dasturi qabul qilindi. Dasturdagi har bir chora-tadbir innovatsion ruhda ishlab chiqilgan desak xato bo'lmaydi. Jumladan:

- Tadbirkorlik va innovatsion sohadagi istiqbolli loyihalarni moliylashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;
- «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish kabi muhim tadbirlar belgilangan.

Hozirgi kunda ushbu dasturda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha izchillik bilan ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu jarayonlarda parlament faoliyatining alohida tutgan o'rnini bor. 2018-yilning fevral oyida Qonunchilik palatasi spikeri N.Ismoilov rahbarligidagi delegatsiyamiz Janubiy Koreya davlatiga tashrif buyurgan edi. Ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha 11 banddan iborat amaliy harakatlar rejasini «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. Ushbu Yo'l xaritasining 9-bandida parlament mas'uliyati doirasiga mamlakatning innovatsion rivojlanishini ta'minlash masalalarini ham kiritish belgilangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy soha barcha tarmoqlarining jadal innovatsion rivojlanishini ta'minlash, jahon ilm-fanining zamonaviy yutuqlarini, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish sohasida parlament faoliyatining samaradorligini oshirish, uning mazkur sohasidagi qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil va boshqa faoliyatini tizimlashtirish hamda faollashtirish qaror bilan belgilab qo'yildi.

Unga asosan Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasining nomi uning mas'ul bo'lgan sohasiga mamlakatning innovatsion rivojlanishini ta'minlash, innovatsion g'oyalar

va texnologiyalarni joriy etish masalalari qo'shimcha ravishda kiritilgan holda «Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi» deb o'zgartirish belgilandi.

Shundan kelib chiqib, Qaror loyihasida bir qator normativ huquqiy hujjatlarga, jumladan:

- 1) Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2005-yil 28-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti»ga;
- 2) Qonunchilik palatasining 2015-yil 12-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitalari ro'yxatini tasdiqlash, qo'mitalar raislari lavozimlarini siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhi o'rtasida taqsimlash to'g'risida (yaxlit qaror)»gi Qaroriga;
- 3) Qonunchilik palatasining 2015-yil 12-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitalarining raislarini saylash to'g'risida»gi Qaroriga;
- 4) Qonunchilik palatasining 2015-yil 5-fevralda qabul qilingan «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasini saylash to'g'risida»gi Qaroriga;
- 5) Qonunchilik palatasining 2018-yil 22-yanvardagi Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2018-yilga mo'ljallangan faoliyatining asosiy yo'nalishlari»ga qo'mita nomini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan tegishli o'zgartirishlar kiritish belgilanmoqda.

Shuningdek, «Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi»ga yangi tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini shakllantirish, monitoring qilish va bu boradagi huquqiy asoslarni ta'minlash kabi dolzarb vazifalar yuklatildi.

Qo'mita mas'ul bo'lgan soha kengayganligini hisobga olgan holda, Qo'mitaning 2018-yilga mo'ljallangan ish rejasiga mamlakatning innovatsion rivojlanishini, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar joriy etilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar bilan to'ldirish borasida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vazifalari yuklatildi. 